Texnik hujjatlar yaratish loyihasi metallga ishlov berishdagi hujjatlarni rasmiylashtirish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday loyihalarda o'quvchilar texnologik xaritalar, ishlab chiqarish jarayonining smetalari, chizmalar va ishlab chiqarish yo'riqnomalarini tayyorlaydilar. Bu esa ularni texnik tafakkurga ega, real ishlab chiqarish jarayonini hujjatlashtira oladigan mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Umuman olganda, ushbu loyihalarning har biri o'z mazmuni va vazifasiga ko'ra, o'quvchilarni texnologik tafakkurga ega bo'lgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga moslashgan kasbiy shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Loyiha asosidagi yondashuv



o'quvchilarda nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki muloqot madaniyati, mas'uliyat, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi.

O'quv-proektiv yondashuvning afzalliklari va amaliy natijalari

O'quv-proektiv yondashuvning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi ko'plab **afzalliklarni** taqdim etadi, ular o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda, *o'quvchi o'qish jarayonida kasbiy faoliyatni amalda sinab ko'radi*, ya'ni u nazariy bilimlarni faqat yodlash bilan cheklanmay, balki ularni real ishlab chiqarish sharoitida, loyihalar ustida ishlash orqali amaliyotda qo'llaydi. Bu esa ta'limning samaradorligini oshiradi, chunki o'rgangan ma'lumotlar va ko'nikmalar darhol mustahkamlanadi va kontekst bilan bog'lanadi.

Shuningdek, o'quv-proektiv yondashuv *tanqidiy va tizimli fikrlashni shakllantiradi*. Loyihani bajarish jarayonida o'quvchilar muammoni aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish, samarali yechimlarni izlash va natijalarni baholash kabi bosqichlardan o'tadilar. Bu esa ularning mantiqiy tafakkuri va muammolarni kompleks yondashuv bilan hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, metallga ishlov berish jarayonida yuzaga kelgan texnologik qiyinchiliklarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish o'quvchining tanqidiy fikrlashini o'stiradi. Bundan tashqari, *mustaqillik, ijodkorlik va javobgarlik kabi shaxsiy sifatlar rivojlanadi*. Loyihalar ustida ishlashda o'quvchi faqat o'qituvchi ko'rsatmalariga bog'liq qolmay, balki o'z tashabbusi bilan ishlashga majbur bo'ladi, ijodiy yechimlar izlaydi va o'z qarorlariga mas'uliyat bilan yondashadi. Misol uchun, CNC dastgohda ishlov berish loyihasida o'quvchi dasturlashning yangi usullarini mustaqil o'rganib, ularni amalda qo'llash orqali yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqishi mumkin.

O'quv-proektiv yondashuvning amaliy natijalari ham ijobiydir. Avvalo, *o'quvchilar o'z loyihasi ustida ishlagani uchun mas'uliyatliroq yondashadi.*



Loyihaning har bir bosqichida ularning qarorlari va harakatlari aniq natijaga olib kelishini tushunishlari natijasida, ular o'z ishiga jiddiy yondashadilar. Bu esa sifat va samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, ko'plab ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, o'quvchilar real ishlab chiqarish muhitida loyiha ishlari bajaradilar. *Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda loyihalar tayyorlanishi* o'quv jarayonini yanada realistik va amaliy ahamiyatga ega qiladi. Masalan, metallni qayta ishlash zavodi bilan hamkorlikda bajarilgan loyiha o'quvchilarga sanoat standartlariga mos keladigan mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Natijada, *bitiruvchilarning ishga tayyorlik darajasi ortadi*. O'quv-proektiv yondashuv orqali shakllangan kompetensiyalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajribaga ham tayangan bo'lib, yangi mutaxassislar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'ladilar. Bu ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tariqa, o'quv-proektiv yondashuvning afzalliklari va uning amaliy natijalari kasb-hunar ta'limining sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.A. Mahmudova. Metallarga bosim bilan ishlov berish asoslari. O'quv qo'llanma. – T.:2020 - 200 b // <https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files>
2. Практические аспекты проектного обучения при изучении дисциплины «Разработка информационных систем». Римма Д. Гутгартс. 2020. С-51-60. DOI: 10.17323/2587-814X.2020.1.51.61
3. Жигалова Ольга Павловна. Проектно-технологический подход обучения как основа подготовки учителя к реализации профессиональной деятельности в информационном обществе. 2018. <https://mir-nauki.com/PDF/55PDMN617>



4. P. I. Obe, A. O. Ezeama, T. C. Ogbuanya and E. O. Ede.
DEVELOPMENT AND VALIDATION OF COMPETENCY-
BASED INSTRUMENT FOR ASSESSING MECHANICAL
METALWORK TECHNOLOGY OPERATIONS OF
TECHNICAL COLLEGES. Vol. 38, No. 4, October 2019. P-887.

[file:///C:/Users/user/Downloads/ajol-file-
journals_483_articles_191761_submission_proof_191761-5701-486376-
1-10-20191212.pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/ajol-file-journals_483_articles_191761_submission_proof_191761-5701-486376-1-10-20191212.pdf)

5. Jalinus, N., Syahril, S., Nabawi, R. A., Arbi, Y. (2020). "How
Project-Based Learning and Direct Teaching Models Affect Teamwork and
Welding Skills Among Students." *International Journal of Innovation,
Creativity and Change*, 11(11), 85–111. DOI: [ED610846](https://doi.org/10.24018/ijicc.v11i11.85-111)



**MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA METAFORANING
QO'LLANISHI**

Gulshanoy Abdulboriyeva

Namangan davlat universiteti

filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodining lingvopoetik tahlili batafsil ko'rib chiqilgan. Shoir she'rlarida ishlatilgan metaforalar tahlili orqali ularning mavzu ko'lami va ifoda uslublari ochib berilgan. Maqolada metaforalarning adabiy va estetik ahamiyati, shuningdek, ularning she'riyatdagi o'ziga xosligi va obrazlilik darajasi yoritilgan. Muhammad Yusufning til boyligi va poetik mahorati, uning asarlarida inson ruhiyatini chuqur anglash va ta'sirchan ifoda topish usullari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqola shoirdagi ma'naviy va falsafiy g'oyalar metaforalarda qanday aks etishini ham ta'kidlaydi.

Аннотация: В этой статье подробно рассматривается лингвопоэтический анализ творчества Мухаммеда Юсуфа. Посредством анализа метафор, используемых в стихах поэта, раскрывается их предметный масштаб и способы выражения. В статье освещается литературно-эстетическое значение метафор, а также их своеобразие и уровень образности в поэзии. Языковое богатство и поэтическое мастерство Мухаммеда Юсуфа, его произведения анализируют способы глубокого понимания человеческой психики и обретения выразительного выражения. Однако в статье также подчеркивается, как духовные и философские идеи поэта отражаются в метафорах.

Abstract: This article examines in detail the linguistic and poetic analysis of the work of Muhammad Yusuf. Through the analysis of metaphors used in the poet's poems, their subject scale and ways of expression are revealed. The article highlights



the literary and aesthetic significance of metaphors, as well as their originality and level of imagery in poetry. The linguistic richness and poetic skill of Muhammad Yusuf, his works analyze ways to deeply understand the human psyche and gain expressive expression. However, the article also highlights how the poet's spiritual and philosophical ideas are reflected in metaphors.

Kalit soʻzlar: *lingvopoetik tahlil, koʻchim, metafora, oʻxshatish, oʻxshashlik, uslub.*

Ключевые слова: лингвопоэтический анализ, троп, метафора, сравнение, сходство, стиль.

Keywords: linguopoetic analysis, trope, metaphor, simile, similarity, style.

Tilimiz oʻzining yoqimlilik, shiraliligi, estetik taʼsir doirasi, betakror maʼno jilosi, koʻchma maʼnodagi nozik qochirimlari bilan qimmatlidir.

Ana shunday goʻzal ifoda vositalaridan biri metaforalardir.

“Metafora” (yunoncha metaphora- koʻchirish) – maʼno koʻchishining keng tarqalgan turlaridan biri, narsa-hodisalar orasidagi oʻxshashlikka asoslanuvchi koʻchim turidir¹.

Metafora nutqqa obrazlilik, ekpressiv boʻyoq beradi, tilning estetik funksiyasini kengaytiradi. Xususan, Arastu oʻzining “Ritorika” asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: “Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik, oxorlilik jozibasiga ega, undan oʻrinli foydalanish nuqtni bezaydi”²

Muhammad Yusuf sheʼriyati – sodda, nafis va xalqchil metaforik birliklarga boyligi bilan qimmatlidir:

Kuzgi paykal – jazirama saraton.

Va yelkaga botgan ming igna – oftob.

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik lugʼati. – Toshkent; 2010-yil.

² OʻZME. Birinchi jild. – Toshkent. – 2000 yil



*Do'lda qolgan ko'chatiga achinib,
Ho'ngir- ho'ngir yig'lay olgan azamat,
Brigadirlar ismi inqilob.*

Parchada jazirama saraton paytida, quyosh tig'ida mehnat qilayotgan inson holati shoirning nozik taxayyuli orqali obrazli manzara hosil qilgan. Bu o'rinda quyosh nurlari go'yo ignalar kabi tasvirlanib, nurlarning insonga ta'siri esa o'xshatish asosini tashkil qilmoqda. Ko'rinadiki, shoir metaforalari murakkab manzarani oddiy, yusufona uslubda tasvirlay olishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, shoir she'riyatida yurak, qalb, ko'ngil tushunchalari yetakchi mavzulardan biri bo'lib, o'ziga xos ifodaviylik kasb etadi:

*Bir kuni bexosdan uyg'onib ketsam,
Yig'lab o'tiribdi yuragim yum-yum.*

(“Yurak”)

Yuqoridagi misralarda “yig'lamoq” holat fe'lining yurakka nisbatan qo'llanishi metaforaga asos bo'lishi bilan birga badiiy tasvirning bo'yoqdorligini, poetikligini yanada oshirgan. Shuningdek, shoir “yum-yum” holatga taqlidni bildiruvchi takroriy so'zdan -foydalanish orqali tilimizning emotsional-ekspressiv ta'sir kuchini yaqqol yuzaga chiqargan.

Keyingi misralarda esa shoirning oddiy so'zlar orqali insonning murakkab va tushunarsiz tuyg'ularini naqadar nafislik bilan tasvirlay bilish qobiliyati yaqqol seziladi. Albatta, metafora bu o'rinda ham metafora yetakchi ifoda vositasidir:

*Bog'lardagi gul, yaproq
Endi menga do'st, o'rtoq
Gulxan bo'lib charsillab*



Bag'ri dilim yonar, voh.

(“Qo‘shiq”)

Mazkur parchada gulxanning yonishi va dilning “yonishi” o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik metaforaga asos bo‘lgan bo‘lsa, “charsillab” taqlid asosli yasama fe‘l ma‘noni noziklashtirishga xizmat qilgan.

Yoki:

Osmon olis, osmon jim

Osmon quloq soladi.

Yuragimni sog‘inchim

G‘ijjak qilib chaladi.

(“Yor-yor”)

Bu namunada esa shoir “osmon”, “yurak”, “sog‘inch” leksemalarini jonlantirish bilan metafora hosil qiladi: sog‘inch yurakni shu darajada azoblamoqdaki, hatto uni g‘ijjak qilib chalmoqda, osmon esa undan chiqayotgan nolali, mahzun tovushlarni olislardan jimgina kuzatmoqda.

Shoir ijodini, albatta, tabiat tasvirisiz tasavvur etish qiyin:

Bahorda ko‘p og‘ir,

Qiqirlab tursa,

Tizzangga suyaklib lolaqizg‘aldoq.

Yalang‘och novdalar pichirlab tursa,

Kuzda, sukunatga cho‘kkanda chorbog‘.

(“Bahorda ko‘p og‘ir”)



Ushbu miralardagi *ikki fasl*: zumrad bahor va oltin kuz tabiati tasvirlanib, shoirning teran nigohliligi, ziyrak kuzatishlari mahsulini ko'rsatadi. Tabiatning bahoriy ko'rinishi tizzaga "*suykalib*", "*qiqirlab*" turgan lolaqizg'aldoq orqali ifodalangan bo'lsa, kuzda barglari to'kilgan daraxt shohlarining shamolda tebranib turishi "*pichirlab turmoq*" ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi orqali sodda va nafis tasvirlangan.

Yoki:

Sarin sabo qo'shiqlar aytar,

Maysaga yonboshlab tinglar shudringlar

Oq shiypon ortidan mo'ralar oftob

Hey, qizlar, turinglar.

(“Istak”)

Yuqoridagi to'rtlikning barcha misralarida ma'no ko'chishi mavjud. Sabo – tongda esadigan mayin shamolni go'yo "*qo'shiq aytayotganday*", shudringlar bu qo'shiqni "*maysaga yonboshlab tinglayotganday*", oftobning esa shiypon ortidan "*mo'ralab*" chiqib kelayotganini obrazli tasvirlash orqali ijodkor tong portretini yaratadi.

Dala yo'lida qurib qolgan yalpizning zori.

Shotutlarning suvga tushgan ko'zyoshlaridek.

(“Vatan”)

Ushbu namunada esa shotut leksemasining „qizillik” semasini ko'zyoshlarga ko'chirish orqali metafora hosil qilingan. Demak, dala yo'lida qurib qolgan yalpiz qizil, ya'ni qonli yoshlar to'kmoqda.

Bundan tashqari, shoir ijodida metaforik epitetning go'zal namunalarini ham uchratish mumkin:



a) *Bobomning yuzlari oqargan qorday*

...Oh oltin bobom-a, voh tilla bobom

(“Tushimga kiradi

Qodiriy bobom”)

b) *Men esa yashadim olisda bebosh,*

Tilla sirg‘alarning jarangi aro.

O‘sdi, o‘saverdi yurak – xarsangtosh,

Bolangga o‘xshamay turibman qara.

(“Ko‘ngil shodligiga yo‘qdir nihoya”)

Dastlabki namunada oltin, tilla kabi ot turkumidagi so‘zlar gap tarkibida aniqlovchi vazifasida qo‘llanib, shaxs oti (bobo)ni sifatlaymoqda. Ma‘lumki, oltin (tilla) – yuqori qiymatga ega bo‘lgan, tabiatda erkin holda uchraydigan modda. Insonga nisbatan qo‘llanganda esa qadri baland, kam topiladigan, aziz va mo‘tabar kabi ma‘nolarni anglash mumkin.

Keyingi misolda esa metaforik epitetni ajratilgan bo‘lak sifatida ko‘rsatish shoir anglatmoqchi bo‘lgan mazmunni yanada oydinlashtiradi. Narsaga nisbatan qo‘llanadigan xarsangtosh so‘zi mavhum otga qo‘shilib, shoir nuqtning estetik ta‘sirini kuchaytirgan.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan anglashiladiki, Muhammad Yusuf she‘riyatida metafora shunchaki poetik bo‘yoq emas, balki shoir taxayyulining naqadar teranligi, so‘z tanlash mahoratining nafisligini ko‘rsatuvchi omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshken – 2010-yil.
2. O‘ZME. Birinchi jild. – Toshkent – 2000-yil.



3. Uluqov N., Solixo‘jayeva H. Habib Sa‘dulla she‘riyati lingvopoetikasi. Namangan – 2017.
4. Abduolimova M., Isaqova O. Metaforaning tilshunoslikdagi o‘ziga xos ahamiyati va uning turlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social science, 4(01), 689-693.
5. Mirzayeva D., Xojiyeva S. Metaforaning mohiyati va turlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social science, 3(4/2), 436-441.
6. Muhammad Yusuf she‘riy to‘plamlari.



**XALQ HUNARMANDCHILIGINI O‘QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB
O‘QITISH SAMARADORLIGI**

Tojidinova Ruxshonaxon Nabi qizi
Qo‘qon davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi nafaqat milliy madaniyatimizning muhim qismi sifatida, balki iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va ish o‘rinlarini yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Xalq hunarmandchiligini o‘qitishda bunday texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini yaxshilash, ijodkorlikni rivojlantirish va o‘rganish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. Mazkur maqolada xalq hunarmandchiligi sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o‘qitish samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar orqali ta’lim sifatini oshirish usullari, amaliy qo‘llanilishi va natijalari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlari: Xalq hunarmandchiligi, innovatsion texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, zamonaviy o‘qitish metodlari, interaktiv o‘quv usullari, amaliy ko‘nikmalar, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: Сегодня Народные промыслы имеют большое значение не только как важная часть нашей национальной культуры, но и для диверсификации экономики и создания рабочих мест. Применение таких технологий в обучении народным промыслам способствует совершенствованию практических навыков учащихся, развитию творческих способностей, упрощению процесса обучения. В данной статье анализируется влияние использования инновационных технологий в сфере народных промыслов на эффективность обучения. В исследовании исследуются методы, практическое применение и результаты повышения качества образования с помощью современных технологий.



Ключевые слова: народные промыслы, инновационные технологии, эффективность обучения, современные методы обучения, интерактивные методы обучения, практические навыки, цифровые технологии.

Abstract: Today, folk crafts are of great importance not only as an important part of our national culture, but also for economic diversification and job creation. The use of such technologies in teaching folk crafts contributes to the improvement of students' practical skills, the development of creative abilities, and the simplification of the learning process. This article analyzes the impact of the use of innovative technologies in the field of folk crafts on the effectiveness of education. The study examines the methods, practical applications and results of improving the quality of education through modern technology.

Keywords: folk crafts, innovative technologies, learning efficiency, modern teaching methods, interactive teaching methods, practical skills, digital technologies.

Xalq hunarmandchiligi – bu asrlar davomida shakllangan, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, estetik qarashlari va hayotiy tajribasining mujassamidir. U nafaqat kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki xalqning ichki dunyosi, tafakkuri, didi va mahoratini ifodalaydi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos hunar turlari mavjud bo‘lib, ular shu hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, Buxoro zardo‘zligi, Marg‘ilon atlaschilik san’ati, Xiva yog‘och o‘ymakorligi yoki Qumqurg‘on kulolchilik maktabi – bular xalqimizning bebaho boyligidir. Hunarmandchilikning o‘rganilishi yosh avlodga nafaqat mahorat, balki qadriyat, mehnatga hurmat, sabr-toqat va estetik didni singdiradi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda xalq hunarmandchiligining roli beqiyosdir. Bu san’at turlari orqali yoshlar o‘z ildizlarini



anglaydi, o'z millatiga, tarixiga nisbatan faxr tuyg'usini his etadi. Shuningdek, bu soha orqali madaniy merosning uzluksizligi ta'minlanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda esa, hunarmandchilik faoliyati kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mahalliy aholi orasida ish o'rinlari yaratilib, oilaviy daromadlar oshiriladi. Ayniqsa, chekka hududlarda bu faoliyat kambag'allikni qisqartirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi bilan xalq hunarmandchiligi mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda, bu esa yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'lim nuqtai nazaridan esa, xalq hunarmandchiligini o'qitish – bu nafaqat kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki shaxsiy rivojlanish, mehnatga munosabat, ijodkorlik va mustaqil fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishdir. Hunarmandchilik darslari orqali o'quvchilar real hayot bilan bog'liq tajriba orttiradi, o'z ijtimoiy va iqtisodiy hayotida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan hunarni egallaydi. Shu sababli, xalq hunarmandchiligining o'qitilishi va yoshlar orasida targ'ib qilinishi – bu nafaqat milliy madaniyatni asrash, balki barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi omil sifatida ko'rilishi zarur. Bu boradagi ishlarni tizimli va zamonaviy yondashuv asosida olib borish, ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalarning ta'limdagi o'rni borasida gapirganimizda esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, interaktiv metodlar asosida bilim berish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, amaliy yo'nalishdagi ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, kasbiy ko'nikmalarni tez va chuqur egallashini ta'minlamoqda. Innovatsion texnologiyalar orqali an'anaviy ta'lim shakllari o'rniga interaktiv, vizual va amaliy yondashuvlar keng joriy qilinmoqda.



Masalan, **interaktiv o'quv platformalari** orqali o'quvchilar masofaviy tarzda bilim olish, topshiriqlar bajarish va o'qituvchi bilan onlayn muloqot qilish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa ayniqsa pandemiya sharoitida yoki geografik jihatdan chekka hududlarda yashovchi o'quvchilar uchun katta imkoniyatdir. Shuningdek, **3D modellashtirish** texnologiyalari murakkab obyekt va jarayonlarni ko'rgazmali shaklda tasvirlab, o'quvchilarga mavzuni tezroq anglash va xotirada saqlash imkonini beradi. Masalan, hunarmandchilik buyumlarini 3D formatda yaratish yoki ularning ichki tuzilishini o'rganish orqali o'quvchilar real hayotga yaqin tajriba orttiradi.

Virtual reallik (VR) texnologiyasi orqali esa o'quvchi real muhitga yaqinlashtirilgan sun'iy muhitda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hunarmandchilikda bu texnologiya yordamida murakkab ishlov berish jarayonlari, asbob-uskunalardan foydalanish usullari xavfsiz tarzda simulyatsiya qilinadi. Bu o'quvchining xatolardan qo'rqmasdan o'rganishiga, tajriba orttirishiga xizmat qiladi. **Kengaytirilgan reallik (AR)** texnologiyasi esa real jism yoki jarayonga qo'shimcha virtual axborot (matn, grafik, video) joylashtirish orqali bilim olishni boyitadi. Misol uchun, o'quvchi smartfon yoki planshet orqali hunarmandchilik buyumiga qarab turgan paytda, ekran orqali bu buyum haqida texnik ma'lumotlar, ishlab chiqarish bosqichlari yoki tarixiy izohlar ko'rsatilib turadi. Innovatsion texnologiyalar, shuningdek, o'qituvchi faoliyatini ham yengillashtiradi. Dars jarayonini avtomatlashtirish, natijalarni monitoring qilish, o'quvchilarning faolligini baholash va individual yondashuvni qo'llash imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilar bilan ishlashda yangi yondashuvlar joriy etish imkonini beradi.

Amaliyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda o'qitish jarayoni sezilarli darajada ijobiy natijalarni berdi.



- O‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy metodlarga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turdi. Innovatsion vositalar orqali mavzularni vizual va interaktiv tarzda bayon etish o‘quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirib, bilimlarni chuqurroq va uzoqroq muddatga eslab qolishiga xizmat qildi.

- Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, o‘quvchilar asbob-uskunalar bilan ishlashda yanada ishonchli, tezkor va aniqlik bilan harakatlana boshladilar. 3D modellash, virtual muhitda mashq bajarish imkoniyati o‘rgatilayotgan hunar elementlarini chuqurroq anglashga yordam berdi.

- Shuningdek, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirdi. O‘quvchilar o‘z dizayn va loyihalarini ishlab chiqish, yangi g‘oyalar ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali kasbga yangicha yondasha boshladilar. Bu esa ular orasida o‘zini ifoda etish, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi muhim kompetensiyalarning shakllanishiga olib keldi.

- O‘qituvchilar nuqtayi nazaridan qaralganda, innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini monitoring qilish, o‘quvchilarning faolligini baholash va individual yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirdi. O‘quvchilarning faol ishtiroki va real vaqt rejimida natijalarni kuzatish imkoniyati, o‘quv rejalarini yanada moslashtirish va takomillashtirishga zamin yaratdi.

- Shuningdek, interaktiv vositalar orqali o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvi samarali tus oldi. Bu esa darslarning interaktivligini, muloqotga asoslanganligini va motivatsion jihatdan kuchliroq bo‘lishini ta’minladi.

Umuman olganda, xalq hunarmandchiligi sohasida innovatsion texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirdi, balki uni zamonaviy, raqobatbardosh, qiziqarli va ijodiy muhitga asoslangan shaklga keltirdi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodni hunarga qiziqtirish va ularni bozor



talablariga mos malakali kadr sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. *Bu borada bir nechta takliflarni keltirishimiz mumkin:*

1. O'qituvchilarning malakasini oshirish: Hunarmandchilik fanini o'qituvchi mutaxassislarni innovatsion texnologiyalar bo'yicha doimiy ravishda malaka oshirish kurslariga jalb qilish.

2. Maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish: Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun metodik asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan maxsus o'quv dasturlarini yaratish.

3. AR/VR texnologiyalarini joriy etish: Virtual va kengaytirilgan reallik vositalarini xalq hunarmandchiligi ta'limiga joriy etish orqali o'quvchilarga xavfsiz va chuqur amaliy tajriba berish.

4. Metodik qo'llanmalar ishlab chiqish: Innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilar uchun amaliy-metodik qo'llanmalar tayyorlash va ularni muntazam yangilab borish.

5. Innovatsion laboratoriyalar tashkil etish: Kasb-hunar maktablari va kollejlarda qoshida hunarmandchilik yo'nalishida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan amaliy mashg'ulotlar uchun innovatsion laboratoriyalar tashkil etish.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq hunarmandchiligi sohasini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar, raqamli vositalar va zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori natijalar beradi. Shuningdek, o'quvchilarning hunarga bo'lgan qiziqishi ortadi, ijodkorlik va mustaqil fikrlash salohiyati rivojlanadi. O'qituvchilar uchun esa o'quv jarayonini monitoring qilish, baholash va individual yondashuvni qo'llash imkoniyatlari kengayadi. Umuman olganda, innovatsion texnologiyalarni xalq hunarmandchiligi



ta'limiga tatbiq etish orqali kasb-hunar ta'limining zamonaviy, raqobatbardosh va ijodiy modelini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umarov, R. (2023). XALQ HUNARMANDCHILIGI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI OTKAZISH METODIKASI. *Физико-технологического образование*, (3). извлечено от <https://science.jdpu.uz/index.php/phys-tech/article/view/9033>

2. Саидазимов, Д., Намиджонова, Д., & Раджабова, Д. (2023). Texnologiya fani darslarida xalq hunarmandchiligini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4). <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp50-52>

3. Z.Murtozayev. Xalq hunarmandchiligi texnologiyalarini o'qitish. O'quv qo'llan ma. —T.. «Fan va texnologiya», 2017, 188 bet.

4. Feruza Abdulhayeva. TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. 2022. B-905-909

5. Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot. T. Fan, 2005. 205 b.



АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ К НОВОМУ ЭТАПУ
ЖИЗНИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ

Ф.Х. Сирожиддинова, доцент кафедры

Педагогики и психологии АГПИ студентка 1- курса

Махмудова Сарвиноз Жахонгир кизи

Annotation: The article examines the main aspects of students' adaptation to a new stage of life — the transition from school to university education. It analyzes forms of adaptation (academic, social, psychological), challenges faced by students, and the role of parents, teachers, and peers in successful adaptation. Practical recommendations, real-life case studies, and references to scientific research are provided. The conclusion emphasizes the importance of comprehensive support for students during the adaptation period.

Keywords: student adaptation, student life, academic adaptation, social support, psychological resilience, curatorial assistance, parental support.

Annotatsiya: Maqolada talabalarning hayotning yangi bosqichiga — maktabdan universitet ta'limiga o'tishdagi moslashuvining asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Moslashuv turlari (akademik, ijtimoiy, psixologik), talabalar duch keladigan qiyinchiliklar hamda ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlarning muvaffaqiyatli moslashuvdagi roli tahlil qilinadi. Amaliy tavsiyalar, real hayotiy holatlar va ilmiy tadqiqotlarga havolalar keltiriladi. Xulosa sifatida talabalarni moslashuv davrida har tomonlama qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: talabalarning moslashuvi, talaba hayoti, akademik moslashuv, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorlik, kuratorlik yordami, ota-ona qo'llab-quvvatlashi.



Аннотация: В статье рассматриваются основные аспекты адаптации студентов к новому этапу жизни — переходу от школьного к студенческому образованию. Анализируются формы адаптации (академическая, социальная, психологическая), трудности, с которыми сталкиваются студенты, а также роль родителей, преподавателей и сверстников в успешной адаптации. Приводятся практические рекомендации, примеры реальных кейсов и ссылки на научные исследования. Сделан вывод о важности комплексной поддержки студентов в адаптационный период.

Ключевые слова: адаптация студентов, студенческая жизнь, академическая адаптация, социальная поддержка, психологическая устойчивость, кураторская помощь, родительская поддержка.

Введение: Переход от школьного этапа к студенческой жизни сопровождается серьезными изменениями в образе жизни, окружении и уровне ответственности. Студенты сталкиваются с необходимостью самостоятельно принимать решения, выстраивать новые социальные связи, адаптироваться к иным формам учебной деятельности и требованиям преподавателей. В этот период крайне важно обеспечить условия, которые помогут студенту пройти адаптационный период с минимальными потерями и максимальной пользой. Понятие адаптации и ее основные виды в студенческом возрасте. Адаптация — это процесс активного приспособления индивида к условиям внешней среды. В рамках студенческой жизни она охватывает три ключевых направления: Академическая адаптация — умение усваивать учебный материал в новом формате (лекции, семинары, самостоятельная работа). Социальная адаптация — установление новых



социальных связей: с одногруппниками, преподавателями, сотрудниками университета.

Психологическая адаптация — внутреннее принятие новых условий, развитие устойчивости к стрессу, осознание своей новой роли. Эти формы тесно взаимосвязаны и определяют общее качество адаптационного процесса.

Основные трудности адаптационного периода.

Наиболее распространенные проблемы студентов в начале обучения: Отрыв от привычной среды: студенты, особенно иногородние, переживают отрыв от семьи, друзей, прежнего образа жизни. Проблемы в коммуникации: сложности при установлении контакта с сокурсниками, боязнь проявить инициативу. Учебный стресс: новый формат подачи материала, отсутствие контроля со стороны преподавателей, необходимость самостоятельно распределять нагрузку. Эмоциональное напряжение: страх не справиться с требованиями, неудачи на первых экзаменах, сомнения в выборе профессии.

Финансовые трудности: студентам нередко приходится совмещать учебу и работу, что усиливает стресс. Эти факторы, действуя совместно, могут спровоцировать апатию, тревожность и даже депрессивные состояния. Поощрение инициативности со стороны учителей, принятия собственных решений помогает развить студенту уверенность в себе. Благодаря чему студент будет без страха проявлять свои таланты и интересы. Обсуждение целей, распределение учебной нагрузки, помощь в организации быта (особенно у иногородних). Важно, чтобы родители сохраняли баланс между контролем и доверием. Образовательное учреждение имеет огромный потенциал влияния на адаптацию студента: Кураторская работа. Закрепление за группой преподавателя-наставника помогает студентам легче



ориентироваться в системе вуза. Гибкость в обучении: преподаватели, использующие интерактивные методы, формируют у студентов активную позицию в обучении. Связи с учителями и администрацией института, снижают тревожность студентов и повышают уровень доверия. Психологическая служба вуза: наличие квалифицированной помощи способствует профилактике эмоционального выгорания. Интеграционные мероприятия: дни первокурсника, студенческие фестивали, адаптационные курсы помогают студентам быстрее влиться в коллектив и проявлять себя.

Роль сверстников и друзей. Социальная среда — один из важнейших факторов адаптации. Друзья и сокурсники могут: Обеспечивать чувство принадлежности: студент чувствует себя частью коллектива, что снижает тревожность. И помогает им осваивать предметы, через беседы и советы друзей. Выступать источником поддержки: обмен опытом, совместная подготовка к экзаменам, эмоциональная разрядка. Стимулировать активность: участие в мероприятиях, вовлеченность в жизнь факультета, волонтерская деятельность. Формировать ценности: общение с единомышленниками способствует развитию личностных установок, расширению кругозора. Неформальные связи часто становятся опорой в трудные моменты и служат базой для будущего профессионального взаимодействия.

Президент Шавкат Мирзиёев 14 февраля провел встречу с представителями молодежи. В формате видеоконференции обсуждены меры по дальнейшему расширению возможностей для молодых людей. В начале встречи глава государства выразил радость от возможности вновь встретиться с молодежью и назвал ее «золотым фондом нашего народа». Одним из наиболее эффективных способов борьбы с бедностью является образование. Поэтому будут созданы условия для того, чтобы хотя бы один ребенок в



малообеспеченной семье получил высшее образование путем предоставления беспроцентных образовательных кредитов, дополнительных грантов и помощи в оплате контракта. Для талантливых молодых людей из социально уязвимых семей будет запущен новый проект «Светлое будущее» по обучению за рубежом. Агентство по делам молодежи окажет поддержку каждому студенту, обучающемуся за рубежом, а образованные молодые люди будут направляться в зарубежные вузы из топ-100 с покрытием расходов на обучение и проживание. Выпускники, получившие образование за рубежом, будут включены в национальный кадровый резерв и приняты на работу в государственные органы без конкурса. Кроме того, молодым ученым до 35 лет, получившим ученую степень в престижных международных университетах, будет предоставлена беспроцентная ссуда до 800 миллионов сумов на приобретение жилья сроком до 10 лет. Размер единовременного денежного вознаграждения для победителей и призеров престижных международных научных олимпиад будет увеличен в 5 раз. Учитывая все трудности обучения, правительство государства создает все возможные шансы на образование: Выделяет стипендии, а чтобы поддержать Start-up проекты выделяются кредиты без процентов.

Рекомендации по эффективной адаптации: Для более мягкого и продуктивного прохождения адаптационного периода можно рекомендовать:

Поддерживать регулярную связь с семьёй: Быть в курсе какие отношения с родителями у студентов. Если есть какие то проблемы, то помогать решить их через беседу с психологом института. Знать психологическое состояние студента. Пользоваться всеми предложенными возможностями: консультации , с психологом, изучать медитации. Учиться сдерживаться, проявлять свои хорошие стороны. Кружки драмы, поэзии и кружки читателей. То есть



контролировать свое свободное время. Командные проекты. Они помогают, студентам адаптироваться в группе, легче узнавать друг друга, и научиться коммуникации в команде.

Развивать навыки тайм-менеджмента:

Установка целей

SMART-цели:

S (Specific) — конкретными

M (Measurable) — измеримыми,

A (Achievable) — достижимыми,

R (Relevant) — актуальными,

T (Time-bound) — ограниченными во времени. Пример: Не «выучить математику», а «решить 20 задач по алгебре до пятницы».

Советы: Планируйте неделю в воскресенье. Делайте ежедневные списки задач. Используйте метод "3 главных задачи в день" — выбирай три ключевые цели на день. Заведите блокнот для записи. Примерный распорядок дня студента:

Время	Деятельность
07:00–08:00	Подъём, зарядка, завтрак
08:00–12:00	Учёба / пары
12:00–13:00	Обед, отдых
13:00–16:00	Самостоятельная работа, задания
16:00–17:00	Прогулка, отдых
17:00–19:00	Учёба или хобби
19:00–21:00	Вечер, досуг, ужин
21:00–22:00	Подготовка ко сну



Заключение

Адаптация студентов к новому этапу жизни — процесс комплексный и многоуровневый. Он зависит как от внутренних ресурсов самого студента, так и от условий, которые ему создают окружающие: семья, вуз, преподаватели, друзья. На этом этапе формируются новые социальные связи, меняется ритм жизни, появляются новые обязанности и ожидания, что требует от студента гибкости, эмоциональной устойчивости и умения быстро приспосабливаться к изменяющимся условиям.

Особенно значимую роль в успешной адаптации играет образовательная среда вуза, где важны не только академические требования, но и поддержка со стороны преподавателей, наличие психологической помощи, доступ к внеучебной деятельности и благоприятный морально-психологический климат. Не менее важно и участие семьи, которая может выступать источником эмоциональной поддержки и стабильности.

Таким образом, адаптация — это не только индивидуальный путь каждого студента, но и совместная задача всех субъектов образовательного процесса. Создание условий, способствующих снижению стресса, формированию чувства безопасности и принадлежности, развитию навыков самоконтроля и коммуникации — основа для успешного вхождения студента в новый жизненный этап. Комплексная поддержка и внимательное отношение к индивидуальным особенностям позволяют значительно повысить уровень адаптации и, как следствие, успешности обучения и саморазвития.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Ш.М.Мирзиёев провел встречу с представителями молодежи. В формате видеоконференции обсуждены меры по дальнейшему расширению



возможностей для молодых людей "Встречас молодежью " 14
февраля 2025 год Uzinfocom .

2. Ахмедова, З. Трудности социальной адаптации
студентов в вузе // Центр научных публикаций VuxDU. 2022

год № 17.

3. Ильина, И. В. Психологические аспекты социализации и адаптации
студентов в вузе 2016 год.

4. Ковалев, А. М., Соловьева, Т. Л. Социальная поддержка студентов в
процессе адаптации в вузе. Психологические исследования 2019 год Стр:
45–58..



**TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY, INNOVATSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASHNING SAMARADORLIGI**

**Olimova Nilufarxon Doniyorjon qizi
Qo'qon davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning roli yoritilgan. Shuningdek, ta'lim sifati va natijadorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar, interaktiv yondashuv, o'quv motivatsiyasi, raqamli ta'lim.

Аннотация: В данной статье анализируется значение и эффективность использования инновационных педагогических технологий в современном образовательном процессе. Освещается роль интерактивных подходов в повышении интереса учащихся к обучению, развитию творческого мышления и практических навыков. Также будет раскрыта роль цифровых технологий в повышении качества и результативности образования.

Ключевые слова: образовательный процесс, инновационные технологии, педагогические методы, интерактивный подход, учебная мотивация, цифровое обучение.

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of the use of innovative pedagogical technologies in the modern educational process. The role of interactive approaches in increasing students' interest in learning, developing creative thinking and practical skills is highlighted. The role of digital technologies in improving the quality and effectiveness of education will also be revealed.



Keywords: educational process, innovative technologies, pedagogical methods, interactive approach, educational motivation, digital learning.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida, xususan ta'lim tizimida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar — raqamli transformatsiya, globallashuv, mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslashuv kabi omillar pedagogik yondashuvlarni tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy ta'lim metodlari - o'qituvchi markazli, biryoqlama bilim berishga asoslangan yondashuvlar - zamonaviy o'quvchilar ehtiyojlarini to'liq qondira olmay qolmoqda. Natijada, ta'lim jarayonida interaktiv, innovatsion va o'quvchi markazli texnologiyalarni joriy etish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tadbiq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida ishlash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash kabi universal kompetensiyalarni shakllantirishda bunday texnologiyalar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar yordamida darslar nafaqat interaktiv va samarali, balki o'quvchilar uchun qiziqarli ham bo'ladi. Virtual laboratoriyalar, 3D simulyatsiyalar, sun'iy intellekt asosidagi mashqlar, onlayn baholash tizimlari o'quvchilarda darsga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, o'qituvchining roli ham o'zgarib, u endilikda ma'lumot beruvchi emas, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi va yo'naltiruvchisiga aylanadi. Shu bois, bugungi maqolada zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilishning dolzarbligi, ularning samaradorligi hamda amaliy natijalari tahlil qilinadi.



Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli ravishda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan ilg'or uslub va vositalar tushuniladi. Bunday texnologiyalar o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida amaliyotda keng qo'llanilayotgan innovatsion metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida to'xtalib o'tamiz:

- **Problemali ta'lim** — bu uslubda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim bermaydi, balki ular oldiga muammoli vaziyat qo'yadi. O'quvchi o'sha muammoni tahlil qilish, yechim topish va o'z xulosasini chiqarish orqali bilimni mustaqil ravishda egallaydi. Masalan, “Kashtachilikda geometrik naqshlar qanday muvozanat bilan joylashtiriladi?” degan savol asosida o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatda qo'llashga o'rgatiladi.

- **Modulli o'qitish** — o'quv dasturi mustaqil o'quv modullariga bo'linib, har bir modul doirasida o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lum bilim, ko'nikma va kompetensiyalar aniqlanadi. Bu metod o'quvchining individual sur'atda o'rganishiga imkon beradi. Misol uchun, “Keramik buyumlar tayyorlash” bo'yicha modul bir necha bosqichga — loy tayyorlash, shakl berish, bezash, pishirish kabi qismlarga ajratiladi.

- **Konstruktorlik yondashuvi** — bunda o'quvchilar bilimlarni “konstruksiya qilish” ya'ni, mavjud ma'lumotlar asosida yangilik yaratish orqali o'rganadilar. Masalan, o'quvchilarga berilgan turli naqsh elementlaridan o'ziga xos dizayn yaratish topshirig'i orqali ularning yaratuvchanlik salohiyati rivojlanadi.

- **Kichik guruhlarda ishlash (kooperativ ta'lim)** — bu metodda o'quvchilar guruh-guruh bo'lib ishlaydi, har bir a'zo o'zining roli orqali umumiy natijaga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ijtimoiylashuv, fikr almashish va jamoaviy qaror qabul



qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, "Milliy zardo'zlik san'atining zamonaviy talqini" mavzusida guruh a'zolari biri naqsh chizadi, boshqasi matoni tanlaydi, uchinchi marketing rejasini ishlab chiqadi.

• **Interaktiv metodlar** — "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert" kabi uslublar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularni fikrlashga undashda muhim vositadir. "Aqliy hujum" orqali, masalan, "Hunarmandchilik mahsulotlarini qanday qilib xalqaro bozorlarga olib chiqish mumkin?" mavzusida o'quvchilardan turli g'oyalarni yig'ish mumkin. "Klaster" metodi esa murakkab mavzularni sxematik ko'rinishda tahlil qilishga imkon beradi.

Raqamli va axborot texnologiyalari asosidagi yondashuvlar

Bugungi kunda raqamli va axborot texnologiyalari ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bu texnologiyalar o'qitish jarayonini yangilash, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilish imkonini beradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda pandemiya sababli ta'lim masofaviy shaklga o'tgan davrda, ushbu texnologiyalar o'zining yuqori samaradorligini namoyon etdi. Xususan bularga **onlayn ta'lim platformalarni keltirishimiz mumkin**. Masalan, *Google Classroom, Moodle, Zoom* kabi platformalar orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida uzluksiz aloqani ta'minlash imkoniyati yaratildi. Masalan, *Google Classroom* yordamida o'qituvchi dars jadvalini tuzishi, topshiriqlarni berishi, ularni tekshirishi va natijalarni qayd etishi mumkin. Bu platforma o'quvchilarga dars materiallarini istalgan vaqtda ochib ko'rish, uy vazifalarini yuklab olish va elektron tarzda topshirish imkonini beradi. *Moodle* esa o'qituvchilarga interaktiv testlar, video-ma'ruzalar va baholash tizimini yaratishga yordam beradi. Ayniqsa, fanlarni modul asosida o'qitishda *Moodle* keng imkoniyatlarga ega. **Zoom** orqali esa real vaqt rejimida ma'ruzalar o'qish, savol-javob o'tkazish, guruhli muhokamalar tashkil qilish mumkin. Bu platforma ayniqsa, muloqotga asoslangan darslar uchun qulay hisoblanadi.



Aytib o'tish joizki, bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari ham keng ko'lamda qo'llanilinmoqda. **Sun'iy intellekt (AI)** asosida ishlovchi o'quv platformalari ta'lim jarayoniga shaxsiy yondashuvni joriy etadi. Misol uchun, **Khan Academy** o'quvchining bilim darajasini doimiy ravishda kuzatib boradi va unga mos bo'lgan darslarni avtomatik tarzda tavsiya etadi. Bu orqali o'quvchi kuchsiz tomonlarini aniqlab, ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar oladi. **Coursera** esa oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan kurslar orqali o'quvchilarga xalqaro darajadagi bilimlarni egallash imkonini beradi. Har bir kurs video darslar, testlar, amaliy topshiriqlar va yakuniy imtihonlar bilan boyitilgan bo'ladi. **Duolingo** esa til o'rganishga mo'ljallangan sun'iy intellekt asosidagi mobil ilova bo'lib, foydalanuvchining o'zlashtirish tezligiga mos holda mashqlarni taklif etadi. Bu platforma gamifikatsiya (o'yinlashtirish) tamoyiliga asoslangan bo'lib, o'quvchini rag'batlantiruvchi yondashuv bilan ta'minlaydi.

Bugungi o'quvchilar uchun **mobil qurilmalar** orqali ta'lim olish kundalik odatga aylangan. Shu sababli, **Quizlet, Kahoot, Google Forms, Socrative** kabi ilovalar orqali bilimni mustaqil ravishda sinovdan o'tkazish imkoniyati kengaymoqda. Ulardan biri, **Quizlet** yordamida o'qituvchi flashcardlar yaratib, o'quvchilarga asosiy tushunchalarni mustahkamlash imkonini beradi. Bu usul ayniqsa, terminlar, atamalar va definityalarni yodlashda samaralidir. Yana bir klassik usullardan biri **Google Forms** orqali esa testlar, so'rovnomalar va mini-viktorinalar tayyorlab, o'quvchilarning darsni qanday o'zlashtirganini tezkor tahlil qilish mumkin. Natijalar avtomatik hisoblanadi, bu esa o'qituvchining ishini ancha yengillashtiradi. Va eng keng qo'llanilinayotgani esa **Kahoot** platformasi bo'lib, dars jarayoni o'yin elementlari bilan birlashtiriladi. O'quvchilar viktorinalarda raqobatlashib, bilimlarini interaktiv tarzda mustahkamlashadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, innovatsion pedagogik texnologiyalar bugungi ta'lim tizimida nafaqat zamonaviylik talabi, balki ta'lim sifatini oshirishda



strategik vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, innovatsion metodlar o'quv jarayonini interaktiv, jonli va ko'proq amaliyotga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi – bu faqat dars o'tish shaklining o'zgarishi emas, balki butun pedagogik jarayonning yangilanishidir. Sun'iy intellekt, onlayn platformalar, virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va boshqa zamonaviy vositalar yordamida ta'lim individual yondashuv, moslashuvchanlik va yuqori motivatsiyani ta'minlaydi.

Shu boisdan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat bilim berish samaradorligi oshadi, balki o'quvchilarning hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalari, jamoada ishlash madaniyati, axborot bilan ishlash, qaror qabul qilish, raqamli savodxonlik kabi muhim kompetensiyalar ham shakllanadi. Umuman olganda, innovatsion pedagogik yondashuvlar hozirgi zamon ta'limi uchun strategik yo'nalish bo'lib, ularni tizimli ravishda joriy qilish – kelajakda raqobatbardosh, bilimli va kreativ avlodni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. Feruza Abdulhayeva. 2022. B-905-909 // <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-innovatsion-texnologiyalarning-o-rni/viewer>
2. Алдашев И. Использовать специфические свойства компьютера, позволяющие индивидуализировать учебный процесс и обратиться к принципиально новым познавательным средствам. "Экономика и социум" №6(73) 2020 www.iupr.ru



3. Azizova M.I. - TMI, Djamalova G.S. O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2018. № 3. 1-8 b

4. MASOFAVIY TA'LIMNING ISTIQBOLLI TEXNOLOGIYALARI. S. D. Axmedova. 2023. B-744-746 // <https://cyberleninka.ru/article/n/masofaviy-talimning-istiqbolli-texnologiyalari?ysclid=mazmf12fq7439038807>

5. TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI Azizqulov Tohir Jahongir O'g'li. 2024. B-273-278 // <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0018/3.11.pdf>



**TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Olimova Nilufarxon Doniyorjon qizi

Qo'qon davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi 1 kurs talabasi

